

JARQO'TON MANZILGOHINING ILK DAVLATCHILIGIMIZ TARIXIDA TUTGAN O'RNI

To'rayeva Sadoqat

Termiz Davlat muzey qo'riqxonasi

Tarix bo'limi mudiri

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolamizda Jarqo'tonning O'zbekiston hududida ilk shahar sifatida o'r ganilishi, shahar madaniyatining shakllanishi, Jarqo'ton ibodatxonasing ahamiyati, aholining diniy e'tiqod shakli, bu yerdan topilgan yozuvning va muhrlarning o'r ganilishi, diniy boshqaruvning ahamiyati va davlat sifatida shakkalanish jarayonlaqi kabi masalalar qiyosiy tahlil asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bronza davri, sivilizatsiya, shahar, ark, saroy, shahriston, madaniyat, ibodatxona, diniy boshqaruv.

O'zbekiston davlatchiligi tarixini o'r ganar ekanmiz, uning shakllanishi va rivojlanishida ilk shaharlarning o'rni yuqori ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bunday shaharlarni o'r ganishda Surxandaryo viloyati Sherobot tumanida joylashgan Jarqo'ton manzilgohini ilk shahar sifatida e'tirof etilishi diqqatga sazovardir. Chunki, Jarqo'ton yodgorligini qazish vaqtida shahar toifasiga oidligini tasdiqllovchi saroy qoldig'i, mafkuraviy markaz bo'lганligini bildiruvchi ibodatxona, shohlar saroyi joylashgan arkning mudofaa devorlari bilan o'r ab olingenligi, jamoalarning ijtimoiy guruhlarga ajralganligini ko'rsatuvchi minglab qabrlar aholisining hunarmandchilikda, me'morchilikda erishgan yutuqlarini namoyon qiluvchi topilmalar topilgan. Mana shular asosida Jarqo'ton manzilgohini A. Asqarov va Sh. Shirinovlar ilk shahar toifasiga kiritishadi. O'rta Osiyoda ilk shaharlar paydo bo'lish shart-sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlarini arxeologik ma'lumotlar asosida o'r ganishda Jarqo'tonda ilk shaharga oid barcha xususiyatlar o'z tasdig'ini topganligini arxeologik va ilmiy manbalar to'la tasdiqlagani bilan ham ahmiyatlidir. Har bir davlatchilikning vujudga kelishida va yuksalishida uning bosh ildizi ilk shaharlarga borib taqaladi. Chunki, shaharlar davlatning ma'muriy, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida mavjud bo'lgan. Shu jumladan, Jarqo'ton o'zbek davlatchiligin shakllanish va taraqqiy etishida ilk shahar vazifasini bajarib, diniy mafkura asosida boshqarilgan. Jarqo'ton nafaqat diniy markaz, balki jamiyatning boshqaruv markazi ham bo'lgan. Bu yerda ibodatxona qurilishigacha qandaydir boshqaruv markazi saroyga o'xshash inshoot bo'lib, bu inshoot avval jamiyatning boshqaruv markazi bo'lgan. Qadimgi shahar madaniyati zaminida o'zbek davlatchiligin asosiy omillari va poydevori yotadi.

Jarqo'ton qadimiy shahar xarobasi, mil.avv. 2-ming yillikning ikkinchi yarmiga oid bo'lib Sherobod tumani Sherobod daryo irmog'I Bo'stonsoy o'zanining chap sohilida joylashgan. Sopolli madaniyatiga mansub qabilalarning jez davri yodgorligi bo'lib Jarqo'ton aholisi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Jarqo'ton manzilgohida O'zbekiston FA Arxeologiya institutining A. Asqarov rahbarligidagi ekspeditsiyasi 1973-yilda qazish ishlari olib borgan. Qazishmalar jarayonida topilgan topilmalar va buyumlar asosida olimlarimiz tomonidan turli xulosalar berib borildi. Jarqo'ton manzilgohi maydoni 100 gani tashkil etib, mudofaa devori bilan o'ralgan markaziy qo'rg'on otashparastlar ibodatxonasi, qabriston uning mayd. 20 gani tashkil etadi, bir necha dahalardan iborat bo'lgan qadimiy shahardir..

Jarqo'ton manzilgohida markazlashgan mahobatli ibodatxona o'rganilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar mazkur inshoot ilk zardushtiylik ibodatxonasi deb baholagan. Jarqo'ton ibodatxonasi turli yillarda turli olimlar tomonidan o'rganilib kelingan. 1983-1987 yillar mobaynida A.A.Asqarov va T.Sh.Shirinov rahbarligidagi O'zR FA Arxeologiya institutining Sherobod otryadi tomonidan o'rganilgan. 1994-2003 yillar davomida esa, Sh.B.Shaydullaev va D.Xuff rahbarligidagi O'zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi Jarqo'ton manzilgohida o'z tadqiqotlarini olib borgan. Jarqo'ton ibodatxonasi shaharning eng baland va markaz joyida qurilgan. Mudofaa devorlari 4.5 qalinlikda bo'lган. Ichki qurilish usuli ilohiylikka xos bo'lган va uch qismga bo'lingan. Birinchisi xo'jalik qismi bo'lган. U yerda ibodat va koxinlar xizmati bilan bog'liq ishlar uchun ishlab chiqarish ishlari amalga oshirilgan. Masalan, ibodat uchun zarur buyumlar va mayitlar bilan ko'miladigan ashylolar shu qismda ishlab chiqarilgan. Ikkinci qismi ibodatxonasi markazi bo'lган. U yer xom g'ishtdan terilgan keng maydon bo'lib, unda "chohartak" markazi otashkada o'rnatilgan. Uchinchi qismi ibodat amallari bajariladigan ilohiy joy bo'lган. Unda otashkadalar, quduqlar, omborxona, kulxonalar joylashtirilgan. Topilmalar orasida bronzadan ishlangan pichoq dastasi bo'lib, uning gulmixlari termirdan yasalgan. Bu topilma Sopolli madaniyati aholisi termirni bilganligidan dalolat beradi. Katta patriarchal yashagan ko'p xonali uy qoldiqlari topilgan.

Tadqiqot natijalarida juda ko'p arxeologik topilmalar aniqlangan bo'lsada, ushbu ibodatxona qaysi dinni targ'ib qilib borishi haqida faqat taxminlar mavjud. Jarqo'ton ibodatxonasida zardushtiylik diniga oid topilmalar kulxonalar, muqaddas quduqlar, otashkadalar topilgan. Ibodatxonadan tashqarida Jarqo'ton qabristoni mavjud. Bu yerda yettita qabr topilgan. Bu qabrlarda ko'milgan odamlar suyaklari, ostanadon ko'rinishli silindrokonik kichik idishlar ham topilgan. Bular zardushtiylik dini nishonalari bo'lib hisoblanadi. Lekin shu yerning o'zida topilgan mayit yoqish joy qoldiqlari ham topilgan. Jarqo'ton yodgorligi o'zining tuzilishi bilan Dashtli, To'g'aloq XX1, Gonur yodgorliklariga o'xshab ketadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki Jarqo'tonda ilk shaharga oid barcha xususiyatlar va alomatlar o'z aksini topganligini ilmiy tadqiqotlar to'la tasdiqlaydi. Jarqo'tondagi barcha shaharsozlik alomatlari juda yaxshi o'rganilgan. Lekin Jarqo'tondan topilgan odam byusti ya'ni portret janrida yasalgan odamning haykali loydan yasalib quyoshda quritilgan ammo nima uchun kuydirilmaganligi hali yaxshi o'rganilmagan va bizni qiziqtirganjihat hisoblanadi. Agar haykal olovda kuydirilganda edi balki, hozirgacha yaxshi saqlangan bo'lar edi. Jarqo'tondagi haykaltaroshlik namunalari, san'ati hali yaxshi o'rganilmagan va amaliy san'at namunalari ochib berilmagan. Jarqo'tondagi haykaltaroshlik san'atinamunalarini o'rganish va bu bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borish bugungi kun biz tadqiqotchilarning oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, Jarqo'ton ibodatxonasi qoshida o'quv-amaliy muzey tashkil etilsa maqsadga muvofiq ish bo'lar edi, ayniqsa muzey qoshida Jarqo'ton davriga oid moddiy ekspanatlar o'rin olib arxeologik tadqiqot natijalari amalda moddiy madaniyat namunalari orqali ko'rsatib berilsa, bu bevosita tadqiqot doirsini kengaytirib amalda yaqindan ko'rib mahalliy va turistik qiziquvchilar doirasini kengaytirishga zamin yaratar edi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. ЭшовБ. ЎртаОсиёнингқадимгишаҳарларитариҳи. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.
2. ШайдуллаевШ.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари – Самарқанд., 2009.
3. АсқароваА. Энгқадимишшаҳар. – Т.: Маннавият, 2001.
4. АсқароваА. Ўзбекхалқинингкелибчиқишиштарии. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
5. Шайдуллаев А., Бокиев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Т., 2015.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-APREL , 2024

6. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
7. Erqulova Sh. Oltintepa-shaharmonand shahri tarixi. – T., 2016. 8. KaiK. The metallurgy of the late bronze age Sapalli culture(southern Uzbekistan) and its implications for the thin question. – T., 2007. 9. Kai K., Shaydullaev A. The sapalli culture seal corpus. – X., 2022.